

# Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi va uning investitsion faoliyati imkoniyatlari

Nurali Maxmudovich Majidov  
O'zMU

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasining afzalliklari va uning mablag'laridan investitsiya sifatida foydalanish imkoniyatlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** pensiya jamg'armasi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi, pensiya tizimi, davlat pensiya tizimi, pensiya ta'minoti.

## Accumulative pension system and opportunities of its investment activity

N.M.Majidov  
UNU

**Abstract:** This article studies the advantages of the accumulative pension fund and the possibility of using its funds as investments.

**Keywords:** pension fund, funded pension system, pension system, state pension system, pension provision.

Pensiya tizimi keng qamrovliliga ko'ra mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida va davlatning moliya-byudjet sohasida katta o'rin egallaydi. Ushbu tizim ish xaqi tizimi, soliq tizimi, mehnat bozorining holati, demografik vaziyatning hozirgi va istiqboldagi holati bilan chambarchas bog'liqdir.

Demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy omillarning o'zgarishi pensiya sug'urtasi amaliyotida pensiyalarni moliyalashtirishning boshqacha mexanizmalari ishlab chiqish va qo'llash zaruratini keltirib chiqardi. Pensiyalarni shakllantirishga bozor mexanizmlarining tatbiq etilishi badal stavkalarida tashqari, pensiya mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan qo'shimcha daromadlar hisobiga ham tushumlarning o'sishini ta'minlaydi. Ko'pgina mamlakatlarda pensiya jamg'armalarini kapitallashtirish yoki pensiyani moliyalashtirishning jamg'arib boriladigan mexanizmi usullari qo'llanila boshlandi. Bu mexanizm yangi bo'lmay, unda sug'urta va jamg'arish tamoyillari birlashadi.

Hozirgi vaqtda jahon amaliyotida pensiya tizimini tashkil qilishning ikki gipotetik modeli amal qiladi: taqsimlovchi va jamg'ariluvchi tizim.

Taqsimlovchi model pensiya miqdorini ish staji, mehnatga haq to'lash darajasi, sug'urta badallari miqdori va boshqalarga bog'likligini belgilaydi. Ushbu modelda pensionerlarning moddiy jihatdan farovonlik darajasi to'la darajada keyingi avlodning iqtisodiy darajasiga bog'liq bo'ladi.

Jamg'arib boriluvchi modelda keksalikdagi pensiya ta'minoti o'zida uzoq muddatli investitsion jarayonni aks ettiradi. Bunda dastlab badallarni to'lash va iqtisodiyotdagi, pensiya investitsiyasidan qaytim yordamida pensiya kapitalini oshirish, keyin esa jamg'arilgan mablag'larni pensiya ko'rinishida to'lash amalga oshiriladi. Shunday qilib, pensiyalar miqdori mehnat faoliyati davomida tegishli jamg'armalarga ajratmalar va ularni investitsiyalashdan daromadlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi<sup>1</sup>.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi taqsimlovchi tizimdan tubdan farq qiladi. Taqsimlovchi tizimdan asosiy farqi shundaki, har bir sug'urtalangan shaxs pensiyani o'zi shakllantiradi. Jamg'arib boriladigan tizimda ishlovchining badallari keksa kishilarga to'lovlarga sarflanmaydi, balki kapitallashtiriladi, investitsiyalanadi va kelgusida investitsiyalashdan olingan daromadlar bilan birga jamg'arishni amalga oshirgan shaxsning pensiya ta'minoti uchun foydalaniladi. Bu erda pensiya badallari moliyaviy aktivlarga ega bo'lish uchun foydalaniladi. Muayyan ishlovchining keksalikdagi pensiyasini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan bunday aktivlarning umumiy miqdori vaqt o'tgan sari nafaqat tushayotgan badallar hisobiga, balki aktivlarning moliyaviy mablag'laridan foiz yoki qo'yilgan kapitalga dividend shaklida o'sib boradi. Ishlovchi pensiyaga chiqish yoshiga etganida jamg'arilgan aktivlar zaxirasi doimiy pensiya to'lovlarini ta'minlash uchun foydalanilishi mumkin.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi qator ustunliklarga ega. U mamlakatdagi demografik vaziyatga, ishlovchilar va pensionerlar nisbatiga bog'liq bo'lmaydi, biroq iqtisodiy o'sish suratiga bog'liqdir. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi yig'ilgan mablag'lardan uzoq muddatli investitsiyalash uchun foydalanish imkoniyatini berganligi sababli, iqtisodiyotni rivojlantirishga imkon beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida kishining qancha mablag' jamg'arishi va uning jamg'armasi qanchalik samarali investitsiyalanganligiga qarab pensiyalarning differentsiatsiyasi ta'minlanadi. SHu o'rinda e'tibor qaratish lozim-ki, daromadlarning taqsimlanishi bab-baravar bo'lmaydi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bozor xo'jaligi tamoyillariga mos keladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida yalpi passivlar bo'lg'usi pensiya to'lovlarining zamonaviy qiymatini tashkil qiladi, yalpi aktivlar esa - pensiya jamg'armasining mablag'laridir.

Jamg'arib boriladigan mexanizmdan foydalanishning ijobiy jihatlari bilan birga bir qator muammolar ham mavjudki, bu mexanizmni qo'llashda bu jihatlarni ham

<sup>1</sup> Шведская модель пенсионной реформы/Деловая Пресса. - 27.12.2001. – э.и. №51

e'tiborda tutish muhimdir. Avvalo, ushbu tizimda moliyaviy risk darajasi yuqori bo'ladi, ayniqsa nobarqaror iqtisodiyot sharoitida bu nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Moliyaviy risklarga aktivlari pensiya rezervlarini qoplashga jalb qilingan tashkilotlarning bankrotlik holatlarini kiritish mumkin. Bundan tashqari, jamg'arib boriladigan pensiyani shakllantirishga pensiya jamg'armasi mablag'lari uzoq muddatga kapitallashtirilishi sababli siyosiy risklar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Alohida ta'kidlash joyizki, inflyasiya taqsimlanadigan hamda jamg'arib boriladigan pensiya tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida pensiya badallari stavkasini matematik hisob-kitobi birdamlik tizimiga nisbatan murakkab munosabatni ifoda etadi. Badallar stavkasi aktivlarning qaytimi normasi, ularni jamg'arish davrining davomiyligi (ya'ni jismoniy shaxsning mehnat faoliyatining davomiyligi), pensiya to'lanishi lozim bo'lgan yillar davomiyligi (ya'ni pensiyaga chiqqandan keyingi yashash davri), ishlovchi ish haqining qoplash koeffitsientiga bog'liq bo'ladi.

Mutaxassislar jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tish moliyaviy va tashkiliy tomondan jiddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq deb hisoblashadi. Demografik tendensiyalardan mustaqillik mamlakatning iqtisodiy o'sishi sur'atiga bog'liqlikka aylanadi. Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, pensiya jamg'armalari uzoq muddatga kapitallashtirilishi sababli, siyosiy risklar ham mavjud bo'ladi. Ushbu tizimda risk to'liq uning ishtirokchilari zimmasiga yuklanadi; tizim faqat pensiya olish uchun etarli jamg'arish imkoniyatiga ega yuqori maoshli mutaxassislar uchungina to'g'ri keladi; inflyasiyaning muayyan surati sharoitida tizim eroziyaga uchraydi<sup>2</sup>. SHuning uchun jamg'arib boriladigan pensiya tizimining har bir elementi ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha institutsional chora-tadbirlarni ko'rish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishining asosiy omili investitsion faollikni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar jalb etish hisoblanadi. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda uzoq muddatli investitsiyalarning asosiy manbai aholi mablag'lari bo'lishi lozim. SHu bilan birga bunday resurslardan yanada samaraliroq foydalanish imkoniyatlarini izlash lozimki, ushbu resurslar kapital investitsiyalarning asosiy manbaidir. Pensiya jamg'armalari moliyaviy bozorning uzoq muddatli davrda amalga oshirishga mo'ljallangan dasturlarni investitsiyalash bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lgan muhim sub'ektlari hisoblanadi. Pensiya jamg'armalari mablag'larini kapital bozoriga yo'naltirib, uzoq muddatli investitsiya sifatida joylashtirish ushbu bozorning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bunda pensiya jamg'armalarining o'zlari kapital bozoridagi qudratli kuchga aylanadi. Bunday sharoitda jamg'armalar boshqaruvchilarining investitsion siyosati kapitalni taqsimlash va samardorligiga

<sup>2</sup> Ройк В.Л., Чернышев С.Д. Социальное страхование – основной путь реформирования досрочных профессиональных пенсий. // Пенсия. 1997. №6.

ta'sir ko'rsatadi hamda milliy iqtisodiyotni barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya jamg'armalari investitsion jarayonlarning muhim ishtirokchilari hisoblanadi.

Jahon amaliyoti tahlili ko'rsatishicha, pensiya jamg'armalari birinchi navbatda ijtimoiy funksiyani bajaruvchi moliyaviy institut bo'lib, unga nisbatan investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari, banklarga qo'yilgani kabi talablar qo'yilishi lozim. Pensiya zahiralarini joylashtirish jarayonini tartibga solishni yanada takomillashtirish va pensiya jamg'armalarining investitsion faoliyatining samaradorligini oshirish uchun pensiya jamg'armalari investitsion portfeli tarkibi va tuzilmasini tartibga solishning miqdoriy uslublaridan jahon amaliyotida keng tarqalgan "javobgarlik hatti-harakati" tamoyiliga o'tish lozim. Bu tamoyil institutsional investorlarga investitsiyalarning ishonchliligi va shaffofligini saqlagan holda bozor takliflariga muvofiq harakat qilish imkonini beradi. Buning uchun belgilangan xalqaro andozalarga javob berayotgan jamg'armalarga o'zlarining aktivlarini moliyaviy bozorlarida mustaqil investitsiyalash xuquqini berish lozim. Bu holat pensiya tizimining shaffofligini oshiradi va ular faoliyatiga bo'lgan ishonchning ortishini ta'minlaydi.

Pensiya jamg'armalari mablag'larini milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan kompaniyalar aksiyalariga joylashtirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish lozim bo'ladi. Bunday mexanizm, bir tomondan pensiya jamg'armalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashi, ikkinchi tomondan milliy iqtisodiyotning rivojlanishini lokomotivi bo'lishi lozim bo'lgan kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Shuningdek, pensiya aktivlarini davlatning qo'llab-quvvatlashi asosida amalga oshiriladigan uzoq muddatli infratuzilmaviy loyihalarga jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi<sup>3</sup>. Pensiya tizimi bilan milliy iqtisodiyotning boshqa tarkibiy qismlari uzviy bog'liq bo'lib, oqilona tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu o'rinda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi muhim ahamiyat ksb etadi.

Davlatning investitsion siyosati jamg'arib boriladigan pensiya tizimi rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalardan samarali foydalanish muammosini hal qilmasdan turib pensiya jamg'armalari mablag'lari bazasidagi pensiya islohotlarini mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishning ta'sirchan omiliga aylantirib bo'lmaydi.

<sup>3</sup> Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. «Iqtisod-moliya». T., 118 b.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy qilish va takomillashtirish borasidagi islohotlarda faqat makro-iqtisodiy asoslanganlik etarli bo'lmaydi, chunki pensiya tizimi nafaqat mamlakatning iqtisodiy, balki ijtimoiy tizimining ham qismi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham uni ijtimoiy tomondan ayri qarash mumkin emas: pensiya islohotlarining asosiy maqsadi - pensionerlarning sharoitini ularning mehnati hisobiga yaxshilashdir.

Yana bir muhim jihat shundaki, erkaklar va yollarning mehnat bozorida va bandlik sohasidagi turlicha ishtiroki sababli gender masalalari bilan bog'liq holda pensiya miqdorini jinslar bo'yicha tabaqalashtirish muammosi vujudga keladi. SHu tufayli sanoati rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta'minotida gender mummolari doirasida qizg'in baxs-munozaralar bo'lmoqda. Tadqiqotchilar ko'proq gender xolisligiga erishish uchun pensiya ta'minoti tizimida islohatlar zarurligi to'g'risidagi g'oya borasida ko'proq gapirmoqdalar.

Ayollar uchun yuqori haq to'lanmaydigan ishlarda, to'liq bo'lmagan ish haftasi rejimidagi ishlarda, bolalar, keksalar va mehnatga layoqatsizlarga qarash sababli ishdagi tanaffuslar bilan bog'liq ishlarda ko'proq band bo'lishlik xosdir. Ayollar bandligining bu jihatlari pensiya ta'minotining zamonaviy tizimining qurilishi xususiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni bu holat natijada ayollarni pensiya ta'minotiga etarli qamrab olmaslik, pensiya to'lovlarining past darajada bo'lishiga olib keladi. Demak, pensiya tizimini takomillashtirishda bu jihatlarni ham inobatga olish lozim bo'ladi.

Pensiya tizimida jamg'arib boriladigan mexanizmini joriy qilishdagi eng muhim vazifa - mablag'larni boshqarish, butligini ta'minlash va ulardan foydalanish ustidan nazoratni o'z ichiga oluvchi pensiya kapitalini jamg'arishning ishonchli boshqaruv tizimini yaratishdir. Pensiya jamg'armalarining butligini ta'minlash - jamg'arib boriladigan pensiya tizimida muhim jihat hisoblanadiki, bu uning samaradorligiga bog'liqdir. SHuning uchun jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tish moliyaviy sohani isloh qilish bilan muvofiqlikda amalga oshirilishi lozim. Buning uchun investitsion jarayonlar sub'ektlari faoliyatini tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish zarur, bu jarayon pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va investitsiyalash borasidagi munosabatlar sub'ektlariga tatbiq etiluvchi standartlarni, shuningdek moliyaviy aktivlarni tanlashni qamrab olgan holda investitsiyalashni tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishni ham o'z ichiga olishi lozim.

Pensiya jamg'armalari mablag'larini muvaffaqiyatli boshqarish ko'pgina omillarga bog'liqdir. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish harakatlarni bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda muvofiqlashtirishni talab etadi, ya'ni bir tomondan, bo'lg'usi pensionerlarni mablag'larining taqdiri uchun javobgarlikni davlat zimmasiga oladi, boshqa tomondan, investitsiyalashni moliya bozorining professional ishtirokchilari amalga oshiradi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini shakllantirishda investitsiyalashni tartibga solishning asosiy vazifasi - uni tashkil qilishining asosiy tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bunda investitsiyalash sub'ektlarini (yangi tuzilmani yaratish, aktivlarni boshqarish uchun xususiy kompaniyalarni konkurs asosida jalb etish), tanlov, tender kategoriyalarini aniqlash; bu sub'ektlarga qo'yiladigan talablarni va risklarni pasaytirish va javobgarlikni oshirish uchun ularning bozordagi o'zaro munosabati qoidalarini ishlab chiqish; manfaatlar nizosini tartibga solish bo'yicha standartlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шведская модель пенсионной реформы/Деловая Пресса. - 27.12.2001. – э.и. №5
2. Роик В.Л., Чернышев С.Д. Социальное страхование – основной путь реформирования досрочных профессиональных пенсий. // Пенсия. 1997. №6.
3. Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. «Iqtisod-moliya». T., 118 b.

### **References**

1. The Swedish Model of Pension Reform / Business Press. - 27.12.2001. - e.i. # 5
2. Roik V.L., Chernyshev S.D. Social insurance is the main way of reforming early professional pensions. // Pension. 1997. No. 6.
3. Kasimova G.A., Botirov A.A. Accumulative pension benefits. "Economics and Finance". T., 118 b.